Mikroiqtisodiyot fanidan **Yakuniy nazorat** savollari
(MIE-401) (EN) ET124-22 3 kurs

1. Mikroiqtisodiyot" fanining predmeti va o'rganish usullari nimadan iborat?
2. Talab iqtisodiy kategoriya sifatida nimani anglatadi?
3. "Iste'molchi yutug`i" va "ishlab chiqaruvchi yutug'i" nima va ular qanday holatlarda yuzaga keladi?
4. Byudjet chizig`i va byudjet tenglamasi nimani ifodalaydi?
5. Bozor muvozanati deb nimaga aytiladi va bozor muvozanatiga qanday omillar ta'sir ko`rsatadi?
6. Iqtisodiyotda elastiklik nimani ifodalaydi va uni fanga kiritgan olim kim?
7. Minimal va maksimal narxlarni o`rnatishdan maqsad nima va ular qanday oqibatlar keltirib chiqaradi?
8. Yoysimon va nuqtaviy elastiklik qanday hisoblanadi?
9. Iste'molchi tanlovini bozor sharoitida qaysi omillar belgilaydi?
10. "Daromad-iste'mol" chizig`i nimani ifodalaydi?
11. Bozorning dinamik modelida - "to`rsimon model" qanday izohlanadi?
12. Iste'molchining muvozanatlik shartini izohlab bering.
13. Firma nima va u qanday faoliyat turlarini amalga oshiradi?
14. "Engel egri chiziqlari" deb nimaga aytiladi?
15. Talab va taklifdagi o`zgarishlar bozor muvozanatiga qanday ta'sir ko`rsatadi?
16 .Daromadga bog`liq va kesishgan talab elastikligi deb nimaga aytiladi?
17. Talab va taklifning narx bo`yicha elastikligi qanday mazmunga ega?
18. Umumiy va chekli naflilik tushunchalarini tahlil eting.
19. Kundalik extiyoj va qimmatbaho hasham mollariga talab elastikligi qanday bo'ladi?
20. Talabning absolyut elastik va absolyut noelastik shakillarini tahlil eting.
21. Qanday holatlarda bozor muvozanati buzilib, taqchillik yoki ortiqcha taklif yuzaga keladi?
22. Ne'matning narxi va talab o`rtasida qanday bog`liqlik mavjud?
23. Mukammal raqobatlashgan bozorning asosiy shartlari nimalar?
24. Raqobatlashgan mehnat bozor muvozanati qanday o'rnatiladi ?
25. Ehtiyoj va ne'mat tushunchalari nimani anglatadi?
26. Talab qonuni nima va talab chizig`i qanday hosil qilinadi va nimani ifodalaydi?
27. Raqobatlashgan bozorda firmaning talab chizig'i qanday ko'rinishga ega?
28. Firma foydasini maksimmallashtirish uchun ishchi kuchini yollashni qanday shart bajarilganga qadar davom ettiradi ?
29. Agar bozorda shakllangan real narxlar muvozanatli narxdan yuqorida yoki quyida bo`lsa qanday oqibatlar keltirib chiqaradi?
30. Talabning elastik, noelastik va birlik elastikka teng bo`lish shartlarini ko`rsatib bering.
31. Raqobatlashgan bozorda firmaning muvozanat holati qanday aniqlanadi ?
32. Lorents egri chizig'i yordamida daromadlar taqsimlanishi qanday tahlil qilinadi ?
33. Naflilik nima va naflilik funksiyasi nimani ifodalaydi?
34. "Narx-iste'mol" chizig`i nimani ifodalaydi?
35. Firmaning uzoq muddatli oraliqda muvozanati qanday aniqlanadi?
36. Kapital bozori va uning asosiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat ?
37. Tadbirkorlik faoliyati deganda nima nazarda tutiladi?
38. Iqtisodiyotning markaziy va bosh muammosi nimadan iborat?
39. Firmaning uzoq muddatli oraliqdagi taklifi nima bilan belgilanadi ?
40. Qiymatni diskontirlashning mohiyati va ahamiyati nimada ?
41. Firmalar qanday mezonlar bo`yicha turkumlanadi?
42. Iqtisodiy resurslarga nimalar kiradi va resurslar cheklangan sharoitda ularni optimal taqsimlash masalasi qanday yechiladi?
43. Tarmoqning muvozanat holati qanday vujudga keladi ?
44. Yer bozorining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat ?
45. Iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlar deganda nima tushuniladi?
46. Iste'molchi tanlovini bozor sharoitida qaysi omillar belgilaydi?
47. Bozor turlari qanday aniqlanadi ?

Scanner App Lite

48. Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma foydasini qanday maksimallashtirishtiradi ?
49. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig`i nimani ifodalaydi?
50. Mulkchilik shakli bo`yicha firmalarning qanday turlarini bilasiz?
51. Raqobatlashmagan bozorlarda narx va ishlab chiqarish hajmi qanday aniqlanadi ?
52. Firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklif chizig'i grafigi qanday ?
53. Har qanday jamiyat javob berishi lozim bo`lgan beshta fundamental iqtisodiy savol nimalarni nazarda tutadi?
54. Xususiy mulk egaligidagi, Hamkorlikka asoslangan firmalarning va Korporativ mulkka asoslangan firmalarning qanday afzallik va nuqsonlari mavjud?
55. Litsenziya, patent, mualliflik huquqi raqobatga qanday ta'sir ko'rsatadi ?
56. Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma zararlarini qanday minimallashtirishtiradi ?
57. Resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimining doiraviy aylanish modeli nima?
58. Firmalarning tashkiliy-huquqiy shakllarini yoriting.
59. Bozor hokimiyati deganda nimani tushunasiz ?
60. Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma qanday holatda yopiladi ?
61. Taklif miqdorining va taklifning o`zgarishi o`rtasida qanday farq mavjud?
62. Daromad samarasi qanday holatda yuz beradi?
63. Davlatning iqtisodiy siyosati deganda nimani tushunasiz ?
64. Uzoq muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning foydasini maksimallashtirish shartlari nimalar ?
65. Taklif qonuni nima va taklif chizig`i qanday hosil qilinadi?
66. Almashtirish samarasi qanday holatda yuz beradi?
67. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi nima ?
68. Uzoq muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning talab chizig'i qanday ko'rinishga ega ?
69. Ne'matning narxi va taklif o`rtasida qanday bog`liqlik mavjud?
70. Yakka va bozor talabi qanday farqlanadi?
71. Davlatning iqtisodiy siyosatini baholashda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligidan qanday foydalanish mumkin ?
72. Uzoq muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning muvozanat holati qanday aniqlanadi ?
73. Taklif iqtisodiy kategoriya sifatida nimani anglatadi va taklifga ta'sir etuvchi omillar nima?
74. Biror ne'matni ketma-ket iste'mol qilinganda maksimal naflilikka erishish sharti va chekli naflilikning kamayish qonunini tahlil eting.
75. Ishlab chiqarishni cheklash deganda nimani tushunasiz?
76. Firmaning ozoq muddatli o'rtacha xarajatlarining tarkibi qanday aniqlanadi ?
77. Talabga qanday omillar ta'sir ko`rsatadi va talab miqdorining va talabning o`zgarishi o`rtasida qanday farq mavjud?
78. Befarqlik egri chizig`i va ne'matlarni bir-birini o`rnini bosishi zonasi nimani ifodalaydi?
79. Ishlab chiqarish hajmini cheklash qanday oqibatlarga olib keladi ?
80. Monopoliyaga qarshi qonunlarining maqsadi va ahamiyati nimalardan iborat ?
81. Jadvalni to'ldiring.

Q	FC	VC	TC	AFC	AVC	ATC	MC
1	10	2					
2		5					
3		9					
4		14					
5		20					
6		27					
7		35					
8		44					

Scanner App Lite

82. Iste'mol hajmining o'zgarishiga qarab umumiy va chegaraviy naflilikning o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Q	TU	MU
1		16
2	30	
3	42	
4		10
5	60	

Umumiy va chegaraviy naflilikni hisoblang va jadvalning bo'sh kataklarini to'ldiring.

83. Jadvalni to'ldiring (kompaniya mukammal raqobat sharoitida ishlaydi va FC = 16):

Q	TC	ATC	MC	P	TR	MR	PR
0	16			12			
1	18						
2	22						
3	28						
4	36						
5	46						
6	58						
7	72						
8	88						

84. Jadvalni to'ldiring

Q	VC	TC	AFC	ATC	MC
1				12	
2	9				
3		27	3		
4					12

85. TC chizig'i $TC = 40 + Q^2$ formula bilan, talab chizig'i $Q = 20 - P$ formulasi bo'yicha berilgan.
Topish kerak:
1) Optimal ishlab chiqarish hajmi Q_{opt} ni aniqlang.
2) Foyda qiymati PR ni toping.

86. Talab chizig'i $Q_d = 40\text{-}2P$, taklif chizig'i $Q_s = 10+3P$ formulasi bilan berilgan, AVC = 3 va FC = 16 bo'lsa, foyda miqdorini toping.

87. Qiz ota-onasidan haftasiga 6 dollar oladi. U bu pulni komik jurnallar va shirinlik sotib olishga sarflaydi. Komik jurnallarning har biri 2 dollar, har bir shirinlik esa 1 dollar turadi. Qiz uchun har hafta komik jurnallardan va konfetdan olgan nafliligi yig'ilib boradi. Ikki tashkil etuvchi funksiyaning naflilik komponentlari quyidagicha ko'rsatilgan. Jadvaldagi bo'sh joylarni to'ldiring. Qiz qaysi iste'mol to'plamini tanlaydi ?

Komik jurnallar				Shirinliklar			
Q	TU	Q	TU	Q	TU	Q	TU
0	0			0	0		
1	12			1	8		
2	22			2	13		
3	30			3	17		
4	36			4	20		
5	41			5	22		
6	45			6	23		

88. Turli narx darajalarida A mahsulotiga talab hajmi jadvalda keltirilgan. Bo'sh kattaklarini to'ldiring.

Narxi (1litr, so'm)	Talab hajmi (ming litr)	Daromad, (ming, so'm)	Talabning narx Egiluvchanligi koeffitsienti
2,10	10		
1,80	20		

Scanner App Lite

1,50	30		
1,20	40		
0,90	50		
0,60	60		
0,30	70		

89. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlatga asoslanib, doimiy (FC), o'zgaruvchan (VC), chekli (MC), o'rtacha umumiy (ATC), o'rtacha doimiy (AFC), o'rtacha o'zgaruvchan (AVC) xarajatlarni hisoblang.

Ishlab chiqarish, dona	Umumiy xarajatlar TC	TFC	TVC	MC	ATC	AFC	AVC
0	30						
1	50						
2	60						
3	75						
4	120						

90. Dona mahsulotlarga talab va taklif: $Q_d = 200 - 2p$; $Q_s = -100+4p$ ga teng. Ruxsat etilgan narxning joriy etilishi natijasida 120 dona taqchillik yuzaga keldi. Narx qaysi darajada belgilanganligini aniqlang.

91. Jadvalda kompaniyaning umumiy xarajatlari ko'rsatilgan.

Topish kerak: a) Etishmayotgan ma'lumotlar bilan jadvalni to'ldirish.

b) Firma qanday ishlab chiqarish hajmini tanlashi kerakligini aniqlash.

Ishlab chiqarish hajmi Q	Doimiy xarajatlar FC	O'zgaruvchan xarajatlar VC	Umumiy xarajatlar TC	O'rtacha xarajatlar			Chekli xarajatlar MC
				O'rtacha doimiy xarajatlar AFC	O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar AVC	O'rtacha umumiy xarajatlar ATC	
0			20				
1		10					
2						20	
3							20
4					20		
5							40
6		150					
7			190				

92. Umumiy xarajatlarning ishlab chiqarishga bog'liqligi jadvalda keltirilgan:

Ishlab chiqarish, dona	Umumiy xarajatlar
0	50
1	90
2	120
3	145
4	180
5	235
6	325

Scanner App Lite

93. Jadvalda mahsulotga bo'lgan talab hajmi har xil narx darajalarida ko'rsatilgan:

Narxi (P)	Talab hajmi (Q)	Savdodan tushgan daromad (TR)	Narxlarning elastiklik koeffitsienti (E_D)
2,1	10		
1,8	20		
1,5	30		
1,2	40		
0,9	50		
0,6	60		
0,3	70		

Sotishdan tushgan tushum (daromad) va narxning elastiklik koeffitsientini hisoblang.

94. Talab va taklif chiziqlari (chiziqli funksiyalar bilan aniqlanadi) 50ga teng muvozanat narxida kesishadi. Agar P = 80 bo'lsa, Q = 40. Agar P = 35 bo'lsa, Q ni toping.

95. Iste'mol hajmining o'zgarishiga qarab umumiy naflilikning o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Q	TU	MU
1	18	
2	33	
3	45	
4	54	
5	60	

Chegaraviy naflilikni hisoblang va jadvalning bo'sh ustunini to'ldiring.

96. Iste'mol hajmining o'zgarishiga qarab umumiy naflilikning o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Q	TU	MU
2	20	
5	44	
9	68	
14	88	
20	100	

Chegaraviy naflilikni hisoblang va jadvalning bo'sh ustunini to'ldiring.

97. Iste'mol hajmining o'zgarishiga qarab umumiy naflilik o'zgarishining quyidagi bog'liqligi ko'rsatilgan:

Q	A			B		
	TU	MU	MU/P	TU	MU	MU/P
1	18			12,5		
2	34			22,5		
3	48			30		
4	60			35		
5	70			37,5		

$P_A = 4,\ P_B = 2,5,\ I = 23,5$ ekanligi ma'lum.

98. Mahsulot bozori talab va taklif funksiyalari bilan ifodalanadi:

$$Q_d = 36 - 2p$$
$$Q_s = -4 + 3p$$

Hukumat ushbu mahsulot uchun 10 kun birlik qattiq narx belgilagan. Savdo hajmi qanchalik o'zgaradi?

99. Talab funksiyasi $Q_d = 60 - 4P$ formula bilan berilgan. Topish kerak:

1) P = 3 da talabning elastikligini.
2) P = 8 da talabning elastikligini.
3) Qaysi narx qiymatida sotuvchining daromadi maksimal bo'ladi?
4) Maksimal daromad miqdorini aniqlang.

100. Talab funksiyasi $Q_d = 1,25 - 1,25P$ tenglama, taklif funksiyasi $Q_s = 0,5P - 5$ bilan ifodalanadi, bu erda P – bozor narxi, Q_d, Q_s – talab va taklif hajmlari. Muvozanat parametrlarini aniqlang.

Scanner App Lite

AKTSIMF dekani		M.Saitkamolov
Kafedra mudiri		N.A.Iminova
Fan o'qituvchisi		Z.Mutalipova

Scanner App Lite